

## AL-XAKIM AS-SAMARQANDIYNING HAYOTI VA MA'NAVY MEROSI

Maxramov Ramziddin Shukrulla o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali AKT 23.02-guruh talabasi

### Annontatsiya:

Ushbu maqolada biz tan olgan fiqhshunos allomamiz al-Xakim as-Samarqandiyning hayoti va ijodi davomida ilm izlab borgan mamlakatlari, qoldirgan asarlari, ma'naviy meroslari va bizgacha yetib kelgan ma'lumotlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** fiqh, mutakallim, muholif, xalq, aqida, manba, islom, qur'on, hadis. Yurtimizda so'ngi 5 yil davomida barcha sohalar qatori madaniyat rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston milliy madaniyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonning yangi tarixini yarsatish, xalqimizning ma'naviy-marifiy saviyasi va bilimni oshirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash hamda ommalashtirish, jahon madaniyati maydoniga faol integratsiyani olib kirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniyat sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhovaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, shubhasiz madaniyat sohasidagi yangi yutuqlar, o'zgarishlarga va islohotlarning amalga oshishiga turtki bo'ldi.

Bashariyat o'z tarixi davomida ko'plab falokat va urush davrlarini boshdan kechirdi. Ular ichida esa, 50 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan, ming-minglab bolalarni ota-onasiz qoldirgan, ota-onalarni esa farzand dog'idek mudxish dardga mubtalo qilgan, XX asr fojiasi bo'lmish ikkinchi jahon urushi, insoniyat boshiga haqiqiy kulfat keltirdi.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida O'zbekiston Respublikasining shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza

kelib tushgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘z yurtiga sadoqat, vatanparvarlik hissi har bir yurtidoshlarimizning urush maydonlariga qadam qo‘yishlariga sabab bo‘lgandir.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PF-5834-son Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan tarixiy davr (1917-yilgacha) arxiv hujjatlarini o‘rnatilgan tartibda maxfiylikdan chiqarish bo‘yicha choralarini ko‘rish belgilab berilgan. Shuni asnosida Ikkinchi jahon urushi davriga oid bo‘lgan arxiv hujjatlarini maxfiylikdan chiqarish tashabbusi kiritildi.

Shayx ul-Islom al-Xakim as-Samarqandiyning to‘liq ismi Abul-Qosim Isxoq ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Zayd al-Xakim as-Samarqandiy bo‘lib, u butun musulmon olamida o‘z zamonasining mashhur hadisshunosi, fiqhshunosi, mutakallimi va voizi sifatida keng ko‘lamda tanilgan edi.

Ma‘lumki, IX-X asrlar Movarunnahr o‘lkasida diniy va dunyoviy ilmlar gullab yashnagan davr hisoblanadi. Binobarin, ayni shu ilm-fan taraqqiy qilgan davrda Samarqandda al-Xakim as-Samarqandiy tavallud topadi. Yoshligidan ilm-ma‘rifatga kata qiziqish bilan intilgan al-Xakim o‘sha davrning ko‘plab taniqli olimlaridan saboq oladi. Jumladan uning ustozlaridan o‘sha davrda shuhrat qozongan buyuk allomalardan Abul-Xasan Ali ar-Rustug‘foniy, Muhammad ibn Fazl al-Balhiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Muhammad ibn Fazl al-Balxiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Bakr al-Varroq, Muhammad ibn Xuzaym al-Qallos, Abu Nasr al-Iyodiy, Abdulloh ibn Saxl ar-Roziylarni ko‘rsatish mumkin.<sup>2</sup> Mazkur olimlardan u tavsif, xadis ayniqsa fiqh va qalom ilmlaridan har tomonlama chuqur ta‘lim olgan va o‘z davrining taniqli olimi darajasiga yetishgan. Olmon olimi Ulrix Rudolfning yozishicha, somoniylar sulolasining asoschisi Ismoil ibn Ahmad Samarqand, Buxoro va Movarunnahrning boshqa shaharlaridan olimlarni chorlab, ularni islom qoidalarini tp‘plab, bitta yagona aqida yaratishga da‘vat etgan. Bu tadbirdan ko‘zlangan maqsad hududda ildiz olishga ulgurgan turli mazxablarni yo‘q qilish edi. Amalda esa bu bir paytning o‘zida ham muammolar, ham hokimlarning ikkiyoqlama nufuziga tayangan hanafiyya ta‘limotining qat‘iy qoidalari majmui kata axamiyat kasb etgan. Shunga ko‘ra, yig‘ilgan olimlar tomonidan bunday

<sup>1</sup> U.Yusupov, A.Aliyev “O‘zbekiston arxivlari”-Toshkent; Tasvir-2021y.

<sup>2</sup> Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas‘ul muharrir:Z.Islomov.-T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002.-80b. 25-bet.



qo'lyozmani yaratish vazifasi zimmasiga yuklatilgan shaxs ham shunga mos ravishda keng tan olingan nufuzli olim bo'lmog'i tabiiy talab edi. Bu vazifa al-Xakim as-Samarqandiyga topshirildi. Chunki u ko'pgina diniy masalalarning bilimdoni sifatida keng e'tirof etilgan taniqli olim bo'lib, buni fiqh sohasida egallab turgan lavozimi ham tasdiqlaydi. Chunki u o'zining ona shahri Samarqandda ko'p yillar qozi lavozimini egallab kelgan. Al-Xakim as-Samarqandiyga yuklatilgan vazifa fiqh yoki tasavvuf sohalaridan ko'ra mohiyat e'tibori bilan, ko'proq ilohiyatga tegishli edi. U hanafiylar ta'limotining asosiy xususiyatlarini aks ettirgan va barcha uchun birdek tushunarli bo'lgan qoidalar majmuini yaratmog'i lozim edi. Olimning asari ushbu talablarni qoniqtirgan va bu talablarga to'la javob bergan. Bu yildagi urinishlarning maxsuli sifatida yuzaga kelgan asar "Kitob as-savod al-a'zam" nomi bilan mashhur bo'lgan. Al-Xakim as-Samarqandiyning ushbu asari o'sha davrning o'zidayoq fors tiliga o'girilib, keng ko'lamda o'qiladigan hamda darslik sifatida foydalanadigan muhim asarlardan biriga aylangan. Ma'lumki, al-Xakim as-Samarqandiy yashagan davrlarda islom nomidan noto'g'ri aqidalar tarqatishar, buning natijasida ko'p musulmonlar hidoyat yo'lidan og'ib, xaqiqiy islomiy aqidalaridan uzoqlashib qolgan edilar. Adashgan va boshqalarni ham zalolat yo'liga boshlagan turli fiqra va oqimlarning mafkuraviy qarashlariga qarshi imom Abu Mansur al-Moturidiy bilan birgalikda u zotning shogirdi al-Xakim as-Samarqandiy g'oyaviy kurash boshlab buzuq mafkuralarga keskin zarba beradilar. Al-Xakim as-Samarqandiyning eng asosiy asari, shubhasiz "Kitob as-avod al-a'zam" bo'lib, u IX-X asrlarning tugash davridagi Movorunnahr xanafiylarining ilohiyat masalalaridagi qarashlarini aks ettiradi. Asarda keltirilgan bayon ilohiyatning ayrim asosiy masalalari bilan cheklanib qolmaydi. Bu jihat ham asarning manba sifatidagi qimmatini yanada oshiradi.<sup>3</sup> Iymonning ta'rifi, gunohkorning holati, taqdir yoki narigi dunyo hisob-kitobi kabi ko'rib chiqilishi odatiy bo'lgan masalalardan tashqari, al-Xakim as-Samarqandiy yana ko'p masalarga to'xtaladi. Alloh va uning sifatleri, shuningdek Qur'on yaratuvchisining qiyofasi, Qur'onning manbalari, esxatologiya va taqvo, avliyolarini hurmatlash va zoxidlik, payg'ambar sahobalariga hurmat, jamoatdagi siyosiy munosabatlar va hatto fiqxning o'ziga hos muammolari bir necha bor muhokama qilinadi.

Shuningdek asarda diniy muholiflarnidan iqtiboslarini ham uchratamiz, biroq bu o'rinda muayyan faylasuflarning ayrim aniq g'oyalari ravshan ifoda etilmaydi. Balki

<sup>3</sup><https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>



ular nihoyatda umumiy ko'rinishda taqdim etiladi. Muallif uchun uning o'z shaxsiy ta'limoti muhimroq va uni kengaytirilgan holda, butun tavsilotlari bilan bayon etadi. Bu o'rinda o'quvchi bir muammoga duch keladi. Abul-Qosim al-Xakim as-Samarqandiy bir-biriga yondosh mavzularni alohida guruhlariga ajratib, ya'ni muayyan muntazamlilikda ketma-ket joylashtirilgan fasllarga birlashtirib, tahlil etishdan ongli ravishda voz kechgan. O'quvchining diqqatini ko'proq jalb qilish maqsadida bo'lsa kerak, bir mavzudan ikkinchisiga sakrab o'tadi. Natijada imon to'g'risidagi maqoladan keyin jamoa to'g'risidagi ikkita maqola, undan keyin esa, yana imon to'g'risidagi bir maqola kelishi mumkin. Shuning uchun alohohida masalalar turkumi haqidagi bizning tasavvurimiz o'qish jaroyonida astsekin shakllanib boradi va oxiriga kelib bazi o'rinlarda kutilmagan onglar kasb etadi. Bir qarashda, kitob falsalarini mavzular bo'yicha turkumlash uning mazmunini anglashini osonlashtiradi<sup>4</sup>. Biroq bunday yondashuv risoladan olinadigan taassurotni sezilarli darajada belgilovchi o'ziga xos jihatlarining yo'qolishiga olib kelgan bo'lur edi. Nima bo'lganda ham, al-Xakim as-Samarqandiy kalomga oid muntazam risola yaratishni maqsad qilmagan, hohlamagan ham. Uning vazifasi o'sha davrda Movorunnahirdagi jami musulmonlar uchun batafsil va hammabop qo'llanma yaratish edi. Bazi manbalarda ko'rsatilishicha, al-Xakim as-Samarqandiy ilmiy-ma'naviy merosida "Kitob as-savod al-a'zam" bilan bir qatorda "Al-E'tiqod" nomli asari ham bo'lib, bu asar ham hozirgi vaqtgacha butun dunyo olimu ulomalarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Abul-Qosim al-Xakim as-Samarqandiy 953 milodiy yilda Samarqandda vafot etib, shaharning mashhur Chokardiza qabristoniga dafn qilingan.

Tarixiy-madaniy merosning qadr-qimmatini, yosh avloddan boshlab, jamoatchilik ongiga yetkazosh uchun yaxlit bir tizim yaratish muhim sanaladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalari, jumladan, MT, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalari uchun tarixiy-madaniy merosning qadr-qimmatini anglatuvchi adabiyotlarni yaratish va ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash maqsadga muvofiq, zero bugungi kunda tarixiy-madaniy merosni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash dunyodagi zamonaviy mamlakatlar siyosatining muhim yo'nalishiga aylanib ulgurdi.<sup>4</sup>

Yosh avlodni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o'giti, dono so'zlari, fikrlarini qadrlash, o'rganish, hayotda qo'llash yoshlarni fikr va dunyo qarashini kengaytiradi. Bugungi yoshlar-kelajak poydevori. Shunday ekan, ularni

<sup>4</sup><https://uz.wikipedia.org/>



har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar, yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida fidokor bo'ladigan farzandlar qilib tarbiyalash zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir:Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80b.
2. Mustalaxul xadis: Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf –T.: "Hilol-Nashr", 2019. – 384 b.
3. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
4. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
7. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
9. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
10. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-5>
11. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/B-2>.
12. <https://uz.wikipedia.org/>

